


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DNOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



Ilmiy izlanuvchilar (PhD/DSc) ilmiy faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi ichki  
reglament to'g'risida

**NIZOM**

**DNOV – 2026**

# DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTINING

## Ilmiy izlanuvchilar (PhD/DSc) faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi ichki reglament to'g'risida NIZOMI

### 1. Umumiy qoidalar

1.1. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining (keyingi o'rinlarda DTPI) "Ilmiy izlanuvchilar (PhD/DSc) ilmiy faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi ichki регламент to'g'risida"gi nizomi (keyingi o'rinlarda-nizom) DTPIning ilmiy izlanuvchilar faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizom bo'lib, mazkur nizom "Tashkilotda ilmiy izlanuvchilar faoliyatini choraklik, yillik baholash tartibi, ilmiy faoliyatini baxolovchi mezonlar, ilmiy faoliyatini takomillashtirishda (rag'batlantirish, qayta tayyorlash,)" kabi mavzularni qamrab oladi va ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

1.2. Nizom DTPI Kengashining qarori asosida rektorning buyrug'iga asosan tasdiqlanadi. Mazkur nizom Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini choraklik, yillik baholashda, ilmiy faoliyatini takomillashtirishda (rag'batlantirish, qayta tayyorlash) foydalaniladi.

1.3. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2017 yildagi 304-son qarori va soxaga oid me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiradi.

### 2. Nizomning asosiy yo'nalishlari

2.1 Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi.

2.2. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

2.3. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini takomillashtirish (baholash natijalari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish).

2.4. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini baholash bo'yicha monitoring jadvali.

### 3. Nizomning maqsad va vazifalari

3.1. Nizomning asosiy maqsadi - izlanuvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarning sifatini nazorat qilish va dissertatsiya ishlarini o'z vaqtida yakunlashni ta'minlash.

3.2 Nizomning asosiy vazifalari:

- ilmiy izlanuvchilar faoliyatini yillik baholash;

- ilmiy izlanuvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yish va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

### 4. Institutda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi

4.1. Institutda ilmiy izlanuvchilar faoliyati har yili har chorakda monitoring qilinadi. ilmiy izlanuvchilar faoliyatining ichki monitoring jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2017-yildagi 304-son qarorining tegishli bandlarida keltirilib o'tilgan izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

## **5. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

### **5.1 Ilmiy tadqiqot ishlari:**

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar;

Ilmiy yangilik darajasi;

Amaliy ahamiyati.

### **5.2 Ilmiy nashrlar**

Scopus / Web of Science bazalaridagi maqolalar;

OAK ro'yxatidagi jurnallardagi maqolalar;

Respublika va xalqaro konferensiyalardagi tezislari.

### **5.3 Ilmiy faollik**

Grant va loyihalarda ishtirok etish;

Ilmiy seminar va konferensiyalarda qatnashish;

Xorijiy stajirovkalar.

### **5.4 Dissertatsiya tayyorlash holati**

Ishning bosqichma-bosqich bajarilishi;

Ilmiy rahbar xulosasi;

Kafedra va ilmiy seminar bahosi.

### **5.5 Baholash shakllari**

Har chorak (yoki yarim yillik) monitoring;

Yillik hisobot.

### **5.6 Hisobot topshirish tartibi**

Doktorant har chorak/yil yakunida yozma hisobot topshiradi.

### **Hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

Yakka tartibdagi shaxsiy ish rejasiga muvofiq va qo'shimcha bajarilgan barcha ishlar.

## **6. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini takomillashtirish (baholash natijalari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish)**

6.1. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini takomillashtirish maqsadida ma'naviy rag'batlantirish faqatgina dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun.

6.2. Rag'batlantirish uchun asos izlanuvchining PhD yoki DSc ilmiy daraja diplomining tasdig'i hisoblanadi.

### 7. Ilmiy izlanuvchilar faoliyatini baholash bo'yicha monitoring jadvali

T/r	Ixtisosliklar	Faoliyat baholanuvchilari	O'tkazilish vaqti
1	07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
2	03.00.07-O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
3	13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
4	10.00.04-Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
5	08.00.01 "Iqtisodiyot nazariyasi"	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
6	05.01.04 - Hisoblash mashinalari, majumalari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
7	10.00.06 Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
8	08.00.07- Moliya, pul muomalasi va kredit	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
9	02.00.13-Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
10	10.00.01-O'zbek tili	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
11	08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik

12	07.01.01 - O'zbekiston tarixi	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
13	03.00.10-Ekologiya	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
14	05.01.08. - "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish"	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
15	08.0015-Tadbirkorlik va kichik biznes	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
16	01.01.01 - Matematik analiz	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
17	01.01.05 - Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik
18	13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)	Ilmiy izlanuvchilar PhD/DSc	Har chorak yakuni/yillik

## 8. Yakuniy qoidalar

8.1 Nizom inztitut Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

8.2 Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.